

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIOLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

Farmonova Mashhura Bo'riqulovnaning

Termiz Davlat Universiteti O'zbek Tilshunosligi Kafedrası Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti Xorijiy sotsiolingvistika fanidan

“Umumiy sotsiolingvistika” mavzusidagi tezisi

Annotatsiya

Maqolada til+jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, sotsiolingvistika fanining yangi fan sifatida vujudga kelishi va ushbu fan nima maqsadda yuzaga kelganligi, oldida turgan maqsadni belgilab olishi yoritib berilgan. Chet tillarini o'rganishda qaysi jihatlar inobatga olinishi kerakligi tildagi so'zlar yoki alifboni o'zgartirish jamiyat rivojiga qay darajada ta'sir etishi asosiy g'oya sifatida ilgari surilgan.

Kalit so'zlar. Til va jamiyat, sotsiolingvistika, ekspansiya holati, P. Lafarg, Buyuk Britaniya sotsiolingvistikasi, milliy til va chet tillari taqqosi

Har bir millat jamiyat paydo bo'lib, rivoj topib borar ekan, undagi til ravnaqi ham o'z mavqeiga egadir. Til kishilik jamiyatining asrlar davomidagi butun tarixiy jarayonida ma'lum bir guruh tomonidan emas, balki butun jamiyat va jamiyatning a'zolari tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy hodisadir. Shu bilan birga, til biror davrning, biror ijtimoiy – iqtisodiy jamiyatning mahsuli bo'lmay, balki butun jamiyat tarixiy jarayonidagi bir qancha davrlarning mahsuli bo'lib, jamiyatdagi turli tabaqa vakillari uchun bab-baravar xizmat qiladi. Faqat bir sinfga yoki bir guruhga xizmat qiluvchi til bo'lmagan va bo'lishi ham mumkin emas. Ishlab chiqarish jarayoni jamiyatdagi turli guruh odamlari bir-biri bilan aloqada bo'ladilar, til esa ishlab chiqarishni uyushtirishda jamiyatning hamma sohaları rivojlanishida muhim aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ana shu jamiyat va tilni birgalikda o'rganadigan maxsus sohani olimlar yanada takomillashtirish maqsadida yangi bilimlar bazasini ishlab chiqish niyatida sotsiolingvistika fani vujudga keldi.

Sotsiolingvistika bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy tilshunoslikdir. Bu fan jamiyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada paydo bo'lgan soha sifatida tilning asoslarini jamiyatdan, jamiyatning asoslarini tildan qidiradi, ijtimoiy-siyosiy omillarning tilga ta'siri va yana boshqa masalalarni tekshiradi. Fransuz olimi Paul Lafarg til haqida shunday yozadi: “o'simlik o'ziga xos iqlimdan uzoqda



o'solmaganidak, til ham o'zining ijtimoiy muhitidan uzoqda bo'lolmaydi". Haqiqatdan ham shunday. Tadqiqotlarda sotsiolingvistikaning rasman AQSHda shakllangani ko'p aytilsada, uning markaziy masalasi bo'lgan til va jamiyatning o'zaro ta'siri tilning jamiyatda tutgan o'rni, milliy tillar va davlat tili, til siyosatiga doir qarashlar hind, yapon, ingliz, fransuz, nemis va chex tilshunosliklarida sotsiolingvistika nomi ostida bo'lmasada, o'rganilgan edi. Amerika tilshunosi U. Labov faol sotsiolingvistik tadqiqotida ko'p tilli Hindistonda hindiy tilini davlat tiliga aylantirish g'oyasi bilan bog'liq vaqtlardayoq sotsiolingvistik qarashlar boshlanganini qayd etadi.

O'zbek tilshunosligida tilning ijtimoiy tabiati, jamiyatning tilga ta'siri masalasiga o'tgan asrning 80-yillarida "Tilshunoslikka kirish" qo'llanmasida alohida to'xtalgan bo'lsa ham til va jamiyat muammolari avvalroq tilga olina boshlagan. Fitrat, Elbek, Botu singari jadidlarning asarlarida ozmi-ko'pmi shunga oid qaydlar uchrab turadi. Yetuk tilshunoslarimiz Miraziz Mirtojiev va Nizomiddin Mahmudovning "Til va madaniyat" risolasida ham tilning ijtimoiyligi, davlat tili va til siyosati haqida so'z ketgan o'rinlar mavjud. Mutaxassislar S.Mo'minovning "O'zbek muloqot nutqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasini sotsiolingvistika bo'yicha ilk ish sifatida qayd etadi. So'nggi yillarda bu boradagi tadqiqotlar ko'lami ancha kengaydi.

Butun dunyo rivojlanib borayotgan bir jarayonda sotsiolingvistika naqadar zarurligini milliy tilimiz va ingliz tili ekspansiyasi misolida ayon etib qo'ydi. Milliy tilimiz lug'at tarkibiga katta miqdordagi inglizcha (yoki boshqa chet tillar) so'zlarning kirib borishi til siyosatida o'zgarishlar qilish zarurligini ham ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, o'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida sotsiolingvistika bo'limining tashkil etilishi esa davlat tili va jamiyat munosabatlarini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar kengayishini va kuchayishini ta'minladi. Bu bo'lim o'z faoliyatida o'zbek tilining rivojlanishi bilan bog'liq fundamental va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish va kengaytirish, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish borasidagi ilmiy izlanishlarni kuchaytirish, o'zbek tilining yozma matni me'yor va qoidalarini ishlab chiqish, o'zbek tilining izohli lug'atlari, davlat tilida ish yuritish bo'yicha qo'llanma va adabiyotlar tayyorlash, davlat tilini rivojlantirishga oid huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etishga alohida e'tibor beradi.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tilga kamdir-ko'pdir ta'sirlar bo'lib turadi. Zamonaviylashuv davri esa ko'plab tillar qatori o'zbek tilini ham xalqaro tillarning



faol ta'siriga uchratmoqda. Diqqat qilinsa, zikr etilgan ta'sirlar va tildagi o'zgarishlarni sof lisoniy emas, tildan tashqari, masalan, ijtimoiy- siyosiy iqtisodiy-madaniy jarayonlar harakatlantirmoqda. O'zbek sotsiologiyasida ana shunday ta'sirlashuvlar baholashi, milliy til va davlat tili manfaati nuqtayi nazaridan ish ko'rishi lozim bo'ladi.

Ba'zan uzoq vaqt tilning biror sathi jamiyat, inson omili bilan bog'liq ta'sirlarga o'zgarishlarga uchramaydi yoki tilga ta'sir umummilliy miqyos kasb etmaydi. Biroq yozuv va imlo borasidagi o'zgartirish yoki yangilanishlar umummilliy miqyosda, jamiyatning ongli aralashuvi ostida hal qilinadi. Hatto hukumat bunday lisoniy jarayonlarga faol ta'sir o'tkazadi. O'zbek-arab, o'zbek-lotin, o'zbek-krill va yana o'zbek-lotin alifbolarining joriy etilishida yuqoridagilarni kuzatish mumkin. Bu kabi muammolar ham sotsiologiya o'rganishi kerak bo'lgan obyekt desak bo'ladi.

Yana bir jihatga e'tibor qaratmoqchiman, chet tillarni o'rganish yaxshi va juda zaruriy ish hamda hozirgi zamon talablaridan biri hisoblanmoqda. Chet tillardan birini egallagan (ayniqsa ingliz tilini) mutaxassisga bugun talab ham ehtiyoj ham katta. Ammo xorijiy tillarni ona tilini esdan chiqarish hisobiga o'rganish yaxshi emas, chunki ona tilini unutish hisobiga o'rganilgan xorijiy til ona tilining o'rnini bosib olishi muqarrarki, bunda milliy tafakkur va milliy idrok, ong boshqa, begona tafakkur va begona idrokka aylanadi deyish mumkin. Afsuski, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda inlizlashuv, inglizcha unsurlar ko'payib bormoqda. Masalan, voy undov so'zi o'rnida vau; ma'qul, bo'пти, yaxshi so'zlari o'rnida ok; tashabbus, chaqiriq, da'vat degan so'zlar bo'la turib chellenj so'zi ommalashib ketdi. Modomiki bu so'zlarning tarjimasini o'zbek tilida mavjud. Buyuk Britaniya sotsiologiyasini o'rganish jarayonida shunga guvoh bo'ldikki, chetdan o'zlashtirilgan so'zga ehtiyoj sezmaslik uchun tilshunoslar tomonidan har bitta narsa, buyum, hodisa va holat uchun nomlar, so'zlar ishlab chiqilgan. Ingliz adabiy tilidan foydalanish hukumat tomonidan qat'iy talab etilar ekan, ammo dialektlardan ham foydalanishga hech qanday cheklovlar mavjud emas.

Ma'lumotlar to'plash jarayonidan ko'rinadiki, o'zbek tilshunosligidagi bu yangi soha endi o'zining taraqqiyot bosqichini boshlash arafasida deb o'ylayman.

Sotsiologiyasining asosiy muammosi "til + jamiyat" o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishdan iborat. Shunday ekan til va jamiyat munosabatlari o'rtasidagi bu bog'liqlik ularning taraqqiyotining uzviy ko'rinishidir.



Adabiyotlar

1. A. Nurmonov. “Tilshunoslikka kirish”. T., 2007.
2. Yorqinjon Odilov. “Til va jamiyatning o’zaro munosabatlari” nomli maqolasi. “Yangi O’zbekiston” gazetasi., 2020.
3. Крючков Т. Б., Наумов Б. П. Зарубежная социоллингвистика: Германия, Испания. М., 1991.
4. M. Mirtojiyev. N. Mahmudov. “Til va madaniyat” nomli risolasi. T., 2001.
5. Yuz.uz sayti

